

O‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA’LIM: ZAMONAVIY MUAMMOLAR VA ULARNI HAL QILISHNING MUMKIN BO‘LGAN YO‘LLARI

M.Sh. Norboyeva

Alfraganus universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasida o‘qituvchisi

S.M. Eshmetova

Alfraganus universitetining 2-kurs Logo-23/4 talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14910131>

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirish jarayonidagi zamonaviy muammolar va ularni hal qilishning mumkin bo‘lgan yo‘llari tahlil qilinadi. Maqolada inklyuziv ta’limning asosiy tamoyillari, muammolari, shuningdek, ta’lim infratuzilmasini yaxshilash, o‘qituvchilarni tayyorlash, ijtimoiy stereotiplarga qarshi kurashish va iqtisodiy resurslarni ko‘paytirish kabi muhim yo‘llar ko‘rsatilgan. O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish orqali nogironligi bo‘lgan bolalar va o‘qishda qiyinchiliklarga duch kelgan bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratish maqsad qilingan.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, O‘zbekiston, nogironlik, ta’lim tizimi, o‘qituvchi tayyorlash, infratuzilma, jamiyat integratsiyasi, stereotiplar, iqtisodiy resurslar.

INCLUSIVE EDUCATION IN UZBEKISTAN: MODERN PROBLEMS AND POSSIBLE SOLUTIONS

Abstract. This scientific article analyzes the current issues and possible solutions in the process of developing inclusive education in Uzbekistan. The article discusses the main principles of inclusive education, its challenges, and key solutions such as improving educational infrastructure, teacher training, combating social stereotypes, and increasing economic resources. The development of inclusive education in Uzbekistan aims to create equal opportunities for children with disabilities and children facing learning difficulties.

Keywords: inclusive education, Uzbekistan, disability, education system, teacher training, infrastructure, social integration, stereotypes, economic resources.

ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ: СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ВОЗМОЖНЫЕ ПУТИ РЕШЕНИЯ

Аннотация. В данной статье анализируются современные проблемы и возможные пути их решения в процессе развития инклюзивного образования в Узбекистане. Рассматриваются основные принципы инклюзивного образования, проблемы, а также важнейшие пути решения, такие как улучшение образовательной инфраструктуры,

подготовка преподавателей, борьба с социальными стереотипами и увеличение экономических ресурсов. Развитие инклюзивного образования в Узбекистане направлено на создание равных возможностей для детей с инвалидностью и детей, испытывающих трудности в обучении.

***Ключевые слова:** инклюзивное образование, Узбекистан, инвалидность, образовательная система, подготовка учителей, инфраструктура, социальная интеграция, стереотипы, экономические ресурсы.*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi XI-asrda globalizatsiya, texnologik yangilanishlar va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar yangi rivojlanish bosqichiga qadam qo'yimoqda.

Ta'lim tizimining muhim masalalaridan biri inklyuziv ta'limdir, ya'ni barcha bolalar, shu jumladan, nogironligi bo'lgan yoki o'qishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan o'quvchilarga teng imkoniyatlar yaratish. Inklyuziv ta'lim zamonaviy jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash, har bir shaxsning ijtimoiylashuvini amalga oshirish va jamiyatni yagona butunlik sifatida rivojlantirish maqsadida ahamiyatlidir.

O'zbekistonda inklyuziv ta'limni joriy etish jarayoni turli muammolar bilan yuzlashmoqda.

O'zbekistonda inklyuziv ta'lim davlat ta'lim tizimini rivojlantirishda asosiy mavzulardan biri hisoblanadi. U alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga oddiy maktablarda ta'lim olish uchun teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan. Inklyuziv ta'lim nafaqat ta'limiy, balki jamiyatning barcha qatlamlari ishtirokini talab qiladigan ijtimoiy loyihadir. O'zbekistonda bu soha faol rivojlanish bosqichida, ammo muvaffaqiyatga erishish uchun mavjud to'siqlarni yengib o'tish va uzoq muddatli strategik yechimlarni joriy etish zarur. Inklyuziv ta'lim jismoniy, aqliy yoki ijtimoiy xususiyatlaridan qat'i nazar, barcha bolalar uchun ta'lim olishda teng imkoniyatlarni ta'minlaydigan ta'limdagi yondashuvdir. O'zbekistonda inklyuziya mavzusi, ayniqsa, 2009-yilda mamlakatda ratifikatsiya qilingan BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi kabi xalqaro majburiyatlarni bajarish nuqtai nazaridan tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Biroq, inklyuziv ta'limni joriy etish jarayoni kompleks yondashuvni talab qiladigan bir qator muammolarga duch kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasida Ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi 2007-yildan boshlab "O'zbekistonda inklyuziv ta'lim" loyihasini amalga oshirib kelmoqda. Loyihaning asosiy maqsadi - imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar uchun ta'lim olishda teng

imkoniyatlar yaratish va uni boshlang'ich, o'rta, o'rta maxsus hamda oliy ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich joriy etishga, shuningdek, inklyuziv ta'lim sifatini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan.

Inklyuziv ta'limning mohiyati shundaki, uning konsepsiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, u Termiz, Qarshi, Navoiy, Samarqand, Jizzax, Guliston, Toshkent, Andijon, Farg'ona, Qo'qon, Urganch va Nukus shaharlaridagi tajriba-sinov bolalar bog'chalari va maktablar negizida aralash guruhlar va sinflar tashkil etish yo'li bilan maktabgacha va maktab ta'limi tizimiga joriy etilmoqda.

Inklyuziv ta'limning milliy modelining o'ziga xos xususiyati shundaki, u mahalliy va xorijiy tajribani inobatga olgan holda shakllantirilgan .

O'zbekiston Respublikasi prezidenti qaroriga muvofiq 13.10.2020-y., PQ-4860-son 2020 - 2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi maqsadlarida ishlab chiqilgan inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olish huquqini kafolatlash va ta'minlash Konsepsiya maqsadlarni belgilaydi, inklyuziv ta'limni rivojlantirishning vazifalari, asosiy yo'nalishlari, o'rta va uzoq muddatli istiqbolli bosqichlari

Bugungi kunda O'zbekistonda inklyuziv ta'lim tizimi shakllanish bosqichida.

Mamlakatda imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan o'quv muassasalari mavjud, ammo ularning soni cheklangan va ular barcha muhtojlarni qamrab olmaydi.

O'zbekistonda inklyuziv ta'limning zamonaviy muammolari

Bugungi kunda ta'lim tizimi bilan bog'liq bir qator hal qilinmagan muammolar mavjud bo'lib, bu inklyuziv ta'limni ham o'z ichiga oladi. Inklyuziv ta'limdagi dolzarb muammolar quyidagilardan iborat:

1. Yetarli me'yoriy-huquqiy bazaning yo'qligi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va boshqa bir qator me'yoriy hujjatlar kabi qonunlar mavjud bo'lishiga qaramay, inklyuziv ta'limning ko'p jihatlari batafsil bayon etilmagan.

2. Malakali kadrlarning yetishmasligi O'qituvchilar ko'pincha alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlash uchun maxsus tayyorgarlikka ega emaslar, bu esa inklyuziv yondashuvni samarali joriy etish imkoniyatlarini cheklaydi.

3. Moddiy-texnik qiyinchiliklar Ko'pgina ta'lim muassasalari jismoniy, sensor yoki boshqa cheklovlari bo'lgan bolalar uchun jihozlanmagan.

4. Stereotiplar va noto'g'ri qarashlar. Jamiyat ko'pincha inklyuziyaning ahamiyati haqida yetarlicha ma'lumotga ega emas, bu esa bunday bolalarning kamsitilishi va yakkalanishiga olib keladi;

5. Moliyalashtirishning yetarli emasligi. Inklyuziv ta'lim kadrlar tayyorlashdan tortib, moslashtirilgan infratuzilmani yaratishgacha bo'lgan katta sarmoyalarni talab qiladi. Inklyuziyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimlari sa'y-harakatlarining uyg'unligi zarur;

Bir qator otkazilgan tadqiqotlar bilan ulashamiz

D. B. Zaysev I., I. Loshakova, P. V. , Romanov, Ye. R. Yarskaya- Smirnova) tahlil qilindi oddiy maktab o'quvchilarining turli xil imkoniyati cheklangan o'quvchilarga munosabati. Bolalar tayanch-harakat tizimi kasalliklari bo'lgan tengdoshlariga eng ko'p bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lishlari aniqlandi.

Eshitish va ko'rish nuqsoni bo'lgan bolalar kamroq mehirda ega bo'lishdi. Eng past tolerantlik darajasi aqli faoliyatida nuqsoni bo'lgan bolalarga nisbatan belgilandi.

2006-yildan 2011-yilgacha xorijda bo'lgan inklyuziv ta'lim sohasida tadqiqotlar olib borilgan. Shunday qilib, A. De Boer, S. J. Peyl va A. Minnaert "Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining inklyuziyasiga munosabat:

obzor literaturasi." B. Kagran va M. Shmidt sloveniyalik o'qituvchilarning turli xil ta'lim turlariga ega bo'lgan o'quvchilarning inklyuziyalari maktabga. N. K. French va R. V. Chopra tahlilni taqdim etdilar. Maktabda inklyuziya g'oyalarini hayotga tatbiq eta oladigan o'qituvchilar.

Ushbu tadqiqot

"O'qituvchi menejer rovida." Ushbu tadqiqot natijalari umumta'lim maktablari tizimiga inklyuziv ta'limni joriy etishning butun murakkabligini aks ettirdi. Shuni ta'kidlash kerakki, ba'zi tadqiqotlar natijasida inklyuziv ta'limga o'qituvchilar tomonidan ham, inklyuziv sinflarda tahsil olayotgan bolalarning ota-onalari tomonidan ham salbiy munosabat mavjudligi aniqlandi.

Xalqaro hamkorlik

O'zbekiston YUNISEF va Jahon banki kabi xalqaro tashkilotlar bilan ekspert yordamini olish va moliyaviy resurslarni jalb qilish bo'yicha faol hamkorlik qilmoqda. Ushbu loyihalar jahonning eng yaxshi amaliyotlarini joriy etish va ularni milliy sharoitlarga moslashtirishga yordam beradi.

Mumkin bo'lgan yechim yo'llar

1. Qonunchilik bazasini takomillashtirish Inklyuziya masalalarini, shu jumladan moliyalashtirish mexanizmlari, maktablarning majburiyatlari va ota-onalarning huquqlarini aniq tartibga soluvchi maxsus qonunosti hujjatlarini ishlab chiqish va joriy etish.

2. Pedagoglarni tayyorlash O'qituvchilar uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish, pedagoglar turli toifadagi bolalar bilan ishlay olishlari uchun pedagogika oliy o'quv yurtlari va kollejlarda ixtisoslashtirilgan fanlarni joriy etish.

3. Qulay infratuzilmani yaratish, Alohida ehtiyojli bolalar uchun qulay sharoitlarni ta'minlash maqsadida ta'lim muassasalarini rekonstruksiya qilish: panduslar, liftlar, taktil ko'rsatkichlar va maxsus jihozlarni o'rnatish.

4. Axborot-ma'rifiy ishlar Inklyuziv ta'lim to'g'risida jamiyatning xabardorligini oshirish, stereotiplarni bartaraf etish, shuningdek, alohida ehtiyojli bolalarga ijobiy munosabatni shakllantirish uchun kampaniyalar o'tkazish.

5. Idoralararo hamkorlikni rivojlantirish Muammoni hal etishga kompleks yondashish uchun Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi va boshqa idoralar o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish.

6. Xalqaro tajribani jalb qilish. Boshqa mamlakatlardagi inklyuziv ta'limning muvaffaqiyatli namunalaridan foydalanish, ushbu modellarni O'zbekiston voqeligiga moslashtirish.

7. Moliyalashtirishni ko'paytirish Inklyuziv loyihalarni moliyalashtirish uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish, xalqaro grantlarni jalb qilish va biznesning ijtimoiy tashabbuslarda ishtirok etishi.

Rivojlanish istiqbollari

O'zbekiston hukumati inklyuzivlik sohasidagi vaziyatni yaxshilash uchun muhim qadamlar qo'yimoqda. 2021-yilda Inklyuziv ta'limni rivojlantirish davlat dasturi tasdiqlandi, u quyidagi maqsadlarni o'z ichiga oladi:

- Pedagoglarning malakasini oshirish va kasbiy qayta tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish.
- Jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning umumta'lim maktablariga kirishini kengaytirish.
- Bolalar, ota-onalar va o'qituvchilar ixtisoslashtirilgan yordam olishlari mumkin bo'lgan inklyuziv ta'lim resurs markazlarini tashkil etish.

- Masofaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish, bu ayniqsa chekka hududlardagi bolalar uchun dolzarbdir.

Xulosa

Inklyuziv ta'lim nafaqat ta'limiy, balki jamiyatning barcha qatlamlari ishtirokini talab qiladigan ijtimoiy loyihadir. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni umumiy ta'lim tizimiga muvaffaqiyatli integratsiya qilish bag'rikenglik, teng huquqlilik va ijtimoiy adolatni rivojlantirishga yordam beradi. O'zbekistonda bu soha faol rivojlanish bosqichida, ammo muvaffaqiyatga erishish uchun mavjud to'siqlarni yengib o'tish va uzoq muddatli strategik yechimlarni joriy etish va ushbu maqsadlarga erishish uchun qonunchilik bazasini mustahkamlash, infratuzilmani rivojlantirish va jamiyatda inklyuziv ongni shakllantirishni davom ettirish zarur.

O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish katta ahamiyatga ega bo'lib, bu jamiyatni adolatli, teng va barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Mavjud muammolarni hal qilish uchun kompleks yondashuvlar va hamkorlik zarur. O'qituvchilarning tayyorlanishi, maktab infratuzilmasini takomillashtirish, ijtimoiy stereotiplarni o'zgartirish va iqtisodiy resurslarni ko'paytirish orqali O'zbekiston inklyuziv ta'limni muvaffaqiyatli joriy eta oladi va jamiyatning barcha a'zolariga teng imkoniyatlar yaratadi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi O'RQ-641-sonli Qonuni 15.10.2020 y.
2. Onlayn kirish <https://lex.uz/ru/docs/5049549>
3. "Ratifikatsiya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni
4. Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya"ning 2021-yil 7-iyundagi 3PQ-695-son <https://lex.uz/ru/>
5. Alexina S. V., Alekseeva M.N., Agafona
6. Ye.L. Pedagoglarning tayyorgarligi ta'limda inklyuziv jarayon muvaffaqiyatining asosiy omili sifatida // Psixologiya fani va ta'limi. - 2011. - Tom. 16. - No1. - S.83-92.